

Sug'urta bozorida qayta sug'urta qilishning o'rni

Ziyodullobek Bahodirov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Bugalteriya hisobi va audit” yo’nalishi talabasi
Bahodirovziyodullo11@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola O’zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ishlar jumladan O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-2026-yillarga mo’ljallangan “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilab berilgan ishlar, Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlanish va yuqori o’sish suratlarini taminlash maqsadida sug’urta bozorini rivojlanтирish, sug’urta muammolari va muammolarga yechim topish, aholini sug’urtaga bo’lgan ishonchini oshirish, sug’urta bozori va qayta sug’urta ishlari haqida alohida yoritilgan.

Kalit so’zlar : Qayta sug’urtalash, sug’urta kompaniyasi, sug’urta portifeli, sug’urta mukofoti, risk, potensial sug’urtalanuvchi.

The role of reinsurance in the insurance market

Abstract

This article is about the works carried out in the Republic of Uzbekistan, including the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev's "Development Strategy of New Uzbekistan" for 2022-2026, developing the insurance market in order to ensure rapid development and high growth of the national economy, finding solutions to insurance problems and problems, increasing confidence in insurance, insurance market and reinsurance work are covered separately.

Key words: Reinsurance, insurance company, insurance portfolio, insurance premium, risk, potential insured.

Kirish

“Men sug’urta to’lovlari tufayli xonavayron bo’lgan oilalarni bilmayman, lekin to’lovlardan qilinmaganligi sababli xonavayron bo’lgan oilalarni bilaman.”

Uinston Cherchil

Pandemiyadan so’ng butun dunyo bo’ylab iqtisodiy-ijtimoiy sohalar yana o’z iziga tushib olishi bir oz qiyindek va bu muammo. Jamiyatning har bir sohasini muammolarsiz tasvvur etib bo’lmaydi. Shunday muamolar sug’urta faoliyatida ham mavjud. Qayta sug’urtalash jarayonida ichki bozor yaxshi rivojlanmaganli sabab xalqaro bozorga bo’lgan talablar mavjud. Bu esa o’z navbatida qayta sug’urta mukofotlari tashqi bozorga chiqib ketishini ko’rsatadi. Sug’urta faoliyati yildan yilga yaxshilanib bormoqda. So’ngi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar bunga misol bo’la oladi. Sug’urta faoliyati bo’yicha 2021-yil 23-noyabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti O’zbekiston Respublikasining “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi qonunini imzoladi. Qonunning maqsadi sug’urta faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2022-2026-yillarga mo’ljallangan

“Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning ustuvor yo’nalishi milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori suratlarni ta’minlash:

- qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish va sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish.

Yana bir ustuvor yo’nalishda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish inson kapitalini rivojlantirish:

-Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag‘laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug‘urtalash amaliyotini joriy qilish;

-Aholini tibbiy sug‘urtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish;

-Mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, ularning hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash amaliyotini kengaytirish kabi masalalarga alohida e’tibor berildi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda sug‘urta kompaniyalari qiyinchiliklarga duch keladi va qayta sug‘urta kompaniyalarga ehtiyoj seziladi.

Qayta sug‘urtalash - sug‘urtalashga riskni qabul qilish bilan bog’liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish). Sug‘urtalovchi muvozanatlashgan sug‘urta portfelini yaratish va sug‘urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o’zaro kelishilgan holda boshqa sug‘urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish)^[1].

Qayta sug‘urtalash operatsiyalari bilan asosan, ixtisoslashgan qayta sug‘urtalash kompaniyalari shug’ullanadi. Qayta sug‘urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko‘rinishida bo’ladi. Bundan tashqari qayta sug‘urtalash nisbiy va nonisbiy shaklda bo’ladi. Ayrim holatlarda qayta sug‘urtalash operatsiyalari qayta sug‘urtalovchi broker - ikkita tomon, ya’ni sug‘urta kompaniyasi va qayta sug‘urtalovchi kompaniyasi o’rtasidagi vositachidir.

Qayta sug‘urta qilish shartnomalari bir tomonidan sug‘urta kompaniyalari o’rtasida o’zaro tuzilishi yoki ikkinchi tomonidan, sug‘urta kompaniyasi va ixtisoslashgan qayta sug‘urta qilish kompaniyasi o’rtasida tuzilishi mumkin. Bu erda shartnoma o’zi nima degan savol to’g’ilishi mumkin. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 354 - moddasida “Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o’zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishivi shartnoma deyiladi” – deb ko‘rsatilgan. Dastlab, sug‘urta kompaniyasi o’zining moliyaviy qobiliyatini mustahkamlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini boshqa sug‘urta kompaniyasida yoki ixtisoslashgan qayta sug‘urta qilish kompaniyasida sug‘urtalash to’g’risida qaror qabul qiladi. Ushbu qarorni ijrosini ta’minlash maqsadida sug‘urtalovchi ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyasiga murojaat qiladi. Agar qayta sug‘urtalovchi kompaniya riskni qayta sug‘urta qilishga rozilik bildirsa, ular o’rtasida qayta sug‘urtalash shartnomasi tuziladi. Shuni alohida

¹ O’zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to’g’risida”gi qonuni, 23.11.2021 yildagi O’RQ-730-soni

ta'kidlash lozimki, shartnoma shartlarida, unda ishtirok etuvchi tomonlarning huquqlari va majburiyatları, olingan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan javobgarlik, shartnomani kuchga kirishi, amal qilish va bekor etilishi qoidalari mujassam bo'lishi kerak. Shuningdek, shartnomada qayta sug'ortalash mukofoti miqdori va javobgarlik hajmi ko'rsatilishi zarur. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, qayta sug'urta qilishda sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnomasi buyicha sug'urtalanuvchi oldida ushbu shartnoma buyicha sug'urta kompaniyasi javobgar bo'lib qolaveradi.

Biroq asosiy sug'urta shartnomasi buyicha sug'urtalanuvchi hisoblangan sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma buyicha huquq va majburiyatlarining qayta sug'urta qilingan qismi qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga o'tadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlari

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash, nisbiy usullardan foydalananilgan.

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida sug'urta sohalari bo'yicha chet el sug'urta tashkilotlarining qayta sug'ortalash xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar^[2].

Ko'rsatkichlar	31/12/2020		31/12/2021		O'zgarish, %
	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan % da	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan % da	
umumiy sug'urta sohasi					
Qayta sug'ortalashga berilgan	245,884	13%	490,787	16%	+99.6%
Qayta sug'ortalashga qabul qilingan	103,879	6%	332,731	11%	+220.3%
hayotni sug'urta qilish sohasi					
Qayta sug'ortalashga berilgan	-	0%	150	0%	0%
Qayta sug'ortalashga qabul qilingan	-	0%	-	0%	0%
Ko'rsatkichlar	31/12/2021		31/12/2022		O'zgarish, %
	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan % da	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan % da	
umumiy sug'urta sohasi					
Qayta sug'ortalashga berilgan	490,787	16%	755,117	16%	+53.9%
Qayta sug'ortalashga qabul qilingan	332,731	11%	940,087	20%	+182.5%
hayotni sug'urta qilish sohasi					
Qayta sug'ortalashga berilgan	150	0%	131	0%	-12.9%
Qayta sug'ortalashga qabul qilingan	-	0%	468	0%	0%

1-rasm. Chet el sug'urta tashkilotlarining qayta sug'ortalash mukofotlari hajmi

² Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi malumotlari

Ko'rsatkichlar	31/12/2021		31/12/2022		O'zgarish, %
	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan %da	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan %da	
umumiy sug'urta sohasi					
Qayta sug'urtalashga berilgan	370,001,787	30%	631,203,128	30%	+70.6%
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	15,580,318	1%	172,734,645	8%	>+1000%
hayotni sug'urta qilish sohasi					
Qayta sug'urtalashga berilgan	591,774	39%	194,133	15%	-67,2%
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	-	0%	12,424,259	965%	0%
Ko'rsatkichlar	31.12.2020		31.12.2021		O'zgarish, %
	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan %da	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan %da	
umumiy sug'urta sohasi					
Qayta sug'urtalashga berilgan	298 604 872	27%	370 001 787	30%	+23,9%
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	10 794 491	1%	15 580 318	1%	+44,3%
hayotni sug'urta qilish sohasi					
Qayta sug'urtalashga berilgan	-	0%	591 774	39%	0%
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	-	0%	-	0%	0%

2-rasm. Chet el sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urtalash majburiyatları hajmi

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib ko'rishimiz mumkinki, chet-el sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urtalash mukofotlari hajmi bo'yicha :

Qayta sug'urtaga berilgan mukofotlar umumiy sug'urta sohasida 2020-yilda 245,884 mln so'm tashkil qildi va bu jami sug'urta mukofotining 13% , 2021-yilda 490,787 mln so'm jami sug'urta mukofotining 16% , 2022-yilda esa 577,117 mln so'm jami sug'urta mukofotining 16% tashkil etgan. Ya'ni 2021-yilda 2020-yilga nisbatan sug'urta mukofotlari 99,6 % ga, 2022-yilda esa 2021-yilga nisbatan 53,9% ga o'sgan.

Qayta sug'urtalashga qabul qilingan mukofotlar umumiy sug'urta sohasida 2020-yilda 103,879 mln so'm jami sug'urta mukofotining 11 %ini , 2021-yilda 332,731 mln so'm jami sug'urta mukofotining 11%ini, 2022-yilda 940,078 mln so'm jami sug'urta mukofotining 20%ini tashkil etadi. Bundan, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 220 % ga, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 182% ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'rinish turibdiki sug'urta faoliyatining umumiy sug'urta sohasida mukofotlari o'sishni qayd etyapti.

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib 2020-yilda sug'urta faoliyatining 19 %i, 2021-yilda 27 %i, 2022 yilda esa 26 %i chet el sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urtalash xizmatlari bilan bog'liq bo'lgan.

2020 yilda qayta sug'urtalashga berilgan, qayta sug'urtalashning qabul qilgan sug'urta mukofotlarining farqi 142,005 mln so'mni, 2021 yilda 158,056 mln so'm, 2022 yilda esa -185,247 mln so'mni tashkil etgan.

Muhokamalar

Shu jihatdan sug'urta bozorida qayta sug'urta qiluvchilarni ko'paytirish risklarni to'g'ri taqsimlanishiga olib keladi. Moliyaviy barqarorlik nisbatan yaxshilanadi. Moliyaviy beqarorlik moliya bozorlaridagi haddan tashqari o'zgaruvchanlik, moliya institutlarining zaifligi va moliya sektori kompaniyalarining o'z majburiyatlarini bajara olmasligidan kelib chiqadi va bu qayta sug'urtalash uchun etarli moliyaviy resurslarga ega bo'limgan sug'urta kompaniyalari uchun muammo hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda qayta sug'urtalash sug'urtalovchilar rivojlanishining barqarorligini ta'minlaydi va turli xil tabiiy, texnogen va boshqa xavflardan samarali himoya qilishni ta'minlaydigan eng muhim vositalardan biridir^[3].

Sug'urta va qayta sug'urta qilish mamlakatdagi moliyaviy resurslar bilan taminlash ya'ni investitsiya faoliyati turlari qimmatli qog'ozlar, depozitlar, va boshqa investitsiyalarga yo'naltirilishi mamlakatda takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir etadi.

Ko'rsatkich nomi	31/12/2021		31/12/2022		O'zgarish, %
	mln. so'mda	Jamiga nisbatan % da	mln. so'mda	Jamiga nisbatan % da	
Jami investitsiyalar, shu jumladan:	3,746,676	100%	4,751,745	100%	+26.8%
Depozitlar (omonatlar)	2,208,573	58.9%	2,896,636	61.0%	+31.2%
Qimmatli qog'ozlar	1,095,976	29.3%	1,287,917	27.1%	+17.5%
Zaymlar	47,449	1.3%	60,776	1.3%	+28.1%
Ko'chmas mulk	247,351	6.6%	358,944	7.6%	+45.1%
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	142,203	3.8%	118,221	2.5%	-16.9%
Boshqa investitsiyalar	5,122	0.1%	29,252	0.6%	+471.1%

Natijalar

Ko'rsatgichlar shuni ko'rsatadiki, qayta sug'urtalshga berilgan summa mos ravishda 245,884 mln so'm, 490,787 mln so'm, 577,117 mln so'mdan o'sgan, lekin umumiyligida sug'urta summasiga nisbatan mos ravishda 13%, 16%, 16% ni ko'rsatgan. Demak sug'urta bozorida potensial sug'urtalanuvchilar ko'paygan, qayta sug'urta mukofoti yildan yilga ortib, shunga qaramasdan chet-el qayta sug'urtanening umumiyligida nisbatan foizlar deyarli bir xil ko'rinishda. Demak qayta sug'urtanening o'sishi sug'urtaga bo'lган talab ortgani va aholining sug'urta madaniyati va ishonchi ortganidan dalolat beradi. Aholini yanada ishonchini oshirish esa sug'urta tovoni to'lash jarayonlarini o'z vaqtida bajarilishini taminlash eng yaxshi yo'l bo'ladi.

Xulosa

Milliy qayta sug'urta bozorining hozirgi kundagi eng katta muammolaridan biri bu qayta sug'urta mukofotlarining juda katta qismini chetga chiqib ketayotganligidir. Bu holat nafaqat sug'urta sohasiga, balki davlatning pul kredit siyosatiga ham o'z

³ The problems of the domestic reinsurance development in conditions of financial instability

ta'sirini o'tkazmoqda. Chunki boshqa davlatlar bilan amalga oshirilayotgan barcha qayta sug'ortalash operatsiyalari valyutada amalga oshiriladi va bu qayta sug'urta mukofotlari bilan bir qatorda davlatimizdan valyutaning ham chiqib ketishiga olib keladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, qayta sug'urta qilish bo'yicha absalyut ko'rsatkichlarning o'sishi sug'urta bozoridagi qayta sug'urta qilish operatsiyalari hajmi ulushining o'sishini bildirmaydi. Bu o'sish faqatgina milliy sug'urta bozorimizdagi sug'urta mukofotlarining umumiy o'sishi bilangina bog'liqdir. Milliy sug'urta kompaniyalarimiz qayta sug'ortalashni katta hajmda xorijiy kompaniyalar bilan amalga oshirishiga sabab mamlakatimizda qayta sug'urtaga katta hajmdagi risklarni qabul qila oluvchi kompaniyalarning juda kamligidir.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston respublikasi qonuni, 23.11.2021 yildagi O'RQ-730-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"
3. "Qayta sug'urta asoslari" o'quv qo'llanma "Iqtisod-moliya" 2019 qayta nashr
4. Financial and credit activities: problems of theory and practice 2021 № 3 (38)
5. Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi yillik ko'rsatkichlari (2021-2022)